

UDK: 632.937

INTENSIV OLMA BOG‘LARIDA UCHRAYDIGAN OLMA MEVAXO‘RI ZARARKUNANDASIGA QARSHI KIMYOVIY KURASH SAMARADORLIGINI O‘RGANISH.

Matkarimova Oyimjon Matyusupovna O‘simliklar karantini va ximoyasi ilmiy tadqiqot instituti Xorazm filiali kichik ilmiy xodimi, oyimjonmatkarimova606@gmail.com

Annotation. In this article, one of the main fruit trees, the main fruit tree, apple is a rodent pest, many damages caused by the apple worm to the harvest of apple orchards, and the economic losses caused by these damages, and the use of biological and chemical methods to prevent these losses and the use of biological and chemical methods against the apple worm is to study the effectiveness of using new chemical preparations in the fight.

Key words: apple worm, pest, phyllophage, butterfly, fungus, worms, eggs.

Dunyoda oziq-ovqat havsizligini ta‘minlash va jaxon bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘lish maqsadida qishloq xo‘jaligi maxsulotlarini yetishtirish va ularni zararkunanda va kasalliklardan himoya qilishning ilg‘or texnologiyalari ustida tadqiqotlar olib borilmoqda. Ammo urug‘mevali bog‘larda yetishtirilayotgan mahsulotlarning bir qismi haligacha olma mevaxo‘ri (*Carpocapsa pomonella* L.) tomonidan nobud bo‘lishi bu zararkunandaga qarshi kurash tizimini takomillashtirishni talab etadi [1, 2, 4, 5, 7, 8, 9, 10, 11].

Xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 martdagi «O‘zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-5388-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 9 iyuldagi «O‘simliklar karantini to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida O‘RQ-484-son qonuni, Prezidentimizning 2019 yil 23 oktyabrdagi farmoni bilan qabul qilingan Qishloq xo‘jaligini 2030 yilgacha rivojlantirish strategiyasida plantatsiya shaklida intensiv bog‘lar barpo etib yuqori mo‘l xosil olish va O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmonining 30-maqsadida “Eksportbop mahsulotlar yetishtirish hamda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, intensiv bog‘lar maydonini 3 baravar va

issiqxonalarni 2 baravar ko'paytirib, eksport salohiyatini yana 1 milliard AQSh dollariga oshirish" kabi ko'p masalalar belgilab berildi [4, 5, 7, 8, 9, 10, 11].

Tadqiqotlar Xorazm viloyati Xonqa tumanidagi "Karimboy Rashid ota bog'i" f/x va Urganch tumanidagi PSUITI Xorazm ITSning 4 gektarlik intensiv olma bog'laridagi 5 yil oldin ekilgan "Goldon dilishes" navli olma bog'larida o'tkazildi. Izlanishlar umumqabul qilingan uslublar asosida, Sh.T.Xo'jayevning "Qishloq xo'jaligida pestisidlarni ishlatish hamda tadqiqot o'tqazish usul va shartlari" qo'llanmasidan foydalanilgan holda olib borildi [2].

Tadqiqot natijalari. Bunda tajriba dalalarida jinsiy feromon tutqichlar asosida olma mevaxo'ri kapalaklarining uchish davrlari aniqlangandan so'ng, bitta feromonga o'rtacha 8-9 dona kapalaklar tushgadan so'ng kuzatuvlar olib borildi. Tajriba olma gullab o'rtacha 78 % gul barglari to'kilgandan so'ng 2024 yilning 10 mayida erta tongda olib borildi. Ikkinchi ishlov 22 iyunda zararkunandaning ikkinchi avlod kapalakalarining yalpi uchish davri tugagandan so'ng o'tkazildi. Mavsum so'ngida mevalardan olingan sog'lom hosilga nisbatan kimyoviy preparatlarning samaradorligi belgilandi.

Unga ko'ra kimyoviy preparatlardan, bifentrin ta'sir etuvchi moddasiga ega Errou 1,8% em.k, preparati (0,5 l/ga me'yorda) va alfasipermetrin ta'siriga ega Alfagard 10 % k.e. (1,0 l/ga me'yorda) hamda andoza sifatida lyamdasiklo-galotrin ta'siriga ega Karate kadam e.k. (1 l/ga me'yorda) preparatlari tanlab olindi.

Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra kimyoviy preparatlardan Errou 1,8% em.k, preparati gektariga 0,5 l/ga sarf me'yorida qo'llanilgan variantimizda o'rtacha bir tupdagi olma daraxtidagi mevalar miqdori 520,5 donani tashkil etgan bo'lsa, shundan mavsum davomida to'kilgan mevalar 65,7 donani tashkil qildi. Shundan, olma mevaxo'ri bilan zararlanib to'kilgan mevalar soni 17,4 donani tashkil etgan bo'lsa, mexanik shikastlangan (kasallik, tashqi ta'sir va shamol) mevalar 48,3 donani tashkil etdi. Daraxtdagi olma qurti bilan zararlangan mevalar soni 22,8 tani tashkil qildi. Mavsumda jami hosilga nisbatan sog'lom yetishtirilgan mevalar 92.3% ni tashkil qilgan.

Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra kimyoviy preparatlardan Alfagard 10% e.k. 1,0 l/ga me'yorda sarf me'yorida qo'llanilgan variantimizda o'rtacha bir tupdagi olma daraxtidagi mevalar miqdori 525,1 donani tashkil etgan bo'lsa, shundan mavsum

davomida to'kilgan mevalar 71,6 donani tashkil qildi. Shundan, olma mevaxo'ri bilan zararlanib to'kilgan mevalar soni 20,8 donani tashkil etgan bo'lsa, mexanik shikastlangan (kasallik, tashqi ta'sir va shamol) mevalar 50,8 donani tashkil etdi. Daraxtdagi olma qurti bilan zararlangan mevalar soni 23,7 tani tashkil qildi. Mavsumda jami hosilga nisbatan sog'lom yetishtirilgan mevalar 91,53% ni tashkil qilgan.

Andoza variantimizda Karate kadam e.k. kimyoviy preparatini 1,0 l/ga qo'llanilganda esa, mavsum boshida o'rtacha bir tup daraxtdagi mevalarning soni 515,3 dona bo'lib, shundan mavsum davomida to'kilgan mevalar 72,8 donani tashkil qildi. Shundan, olma mevaxo'ri bilan zararlanib to'kilgan mevalar soni 24,9 donani tashkil etgan bo'lsa, mexanik shikastlangan (kasallik, tashqi ta'sir va shamol) mevalar 47,9 donani tashkil etdi. Daraxtdagi olma qurti bilan zararlangan mevalar soni 28,5 tani tashkil qildi. Mavsumda jami hosilga nisbatan sog'lom yetishtirilgan mevalar 89.6% ni tashkil qilgan.

Nazorat variantimizda mavsum boshida o'rtacha bir tupda 522,4 dona olma mevasi bo'lgan bo'lsa, shundan mavsum davomida to'kilgan mevalar 185.6 donani tashkil qildi. Shundan, olma mevaxo'ri bilan zararlanib to'kilgan mevalar soni 122,4 donani tashkil etgan bo'lsa, mexanik shikastlangan (kasallik, tashqi ta'sir va shamol) mevalar 63,2 donani tashkil etdi. Daraxtdagi olma qurti bilan zararlangan mevalar soni 68,3 tani tashkil qildi. Mavsumda jami hosilga nisbatan sog'lom yetishtirilgan mevalar 35.8% ni tashkil qilganligini yuqoridagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

Nazorat variantida esa hosildorlik 1 gektar bog'dan nazoratga nisbatan Errou 1,8% em.k, preparati bilan ishlov berilganda 47,1 s/ga, Alfagard 10% e.k. preparati bilan ishlov berilganda 46,2 Karate kadam e.k. bilan ishlov berilganda 41,4 s/ga hosil saqlab qolindi (1-jadval).

1-jadval

Intensiv olma bog'larining golden delishes navidagi olma mevaxo'riga qarshi qo'llanilgan preparatlarning xo'jalik samaradorligi
(Xorazm viloyati, Xonqa va Urganch tumani, 2024 y.).

Variyantlar	Sarf me'yorlari l/ga	Saqlanib qolingan hosil (dona)	Zararlangan mevalar, %	Nazoratga nisbatan saqlab
-------------	----------------------	--------------------------------	------------------------	---------------------------

				qolingan hosil, ts/ga
Errou 1,8% em.k,	0.5	432	7,72	47.1
Alfagard 10% em.k	1	429.8	8,47	46,2
Karate kadam. em.k andoza	1	414	10,4	41.4
Nazorat	-	253,9	35,8	

Xulosa qilib aytganda tabiatda mavjud hasharotlar mevali daraxtlarga turli hasharotlar zarar keltirishi mumkin. Ularga qarshi kurashish yoki profilaktika sifatida biz ularning biologiyasini bilishimiz lozim.

Kimyoviy preparatlarni qo'llash orqali hosildorlik 1 gektar bog'dan nazoratga nisbatan Errou 1,8% em.k, preparati bilan ishlov berilganda 47,1 s/ga, Alfagard 10% e.k. preparati bilan ishlov berilganda 46,2 Karate kadam e.k. bilan ishlov berilganda 41,4 s/ga hosil saqlab qolindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Яхонтов В.В. Ўрта Осиё қишлоқ хўжалиги зараркунандалари. – Тошкент: “Ўрта ва олий мактаб”, 1962. – Б. 368-382.
2. Хо'jayев Sh.T. Qishloq xo'jaligida pestisidlarni ishlatish hamda tadqiqot o'tqazish usul va shrtlari. “Zilol buloq” nashriyoti 2020 yil. - P. 41- 42.
3. Muhammadaliyev Sh.S., Sulaymonov B.A., Rashidov M.I. Ekinlar zararli organizmlari rivojlanishi va tarqalishining bashorati. “Oqituvchi” nashriyoti 2002 yil. - P. 122-123.
4. Ro'zmetov R.S., A.A.Urazbayev., Atajanov T.S. Xorazm viloyati sharoitida olma qurti (Carpocapsa pomonella)ning rivojlanishini o'rganish. Xorazm Ma'mun Akademiyasi axborotnomasi 6/1- Xiva, 2022. – 130 b.
5. Обиджанов Д. Опасный вредитель в садах Узбекистана //Ж. Защита и карантин растений. – Москва, 2009. – №3. – С.52.
6. Обиджанов Д.А. Муминов М. Вредители яблони и борьба с ними в садах Узбекистана. //Жамият ва инновatsiялар – Общество и инновatsiи – Society and innovations Special issue -1, №01 (2020) / ISSN 2181-1415. С. 70-73.

7. Obidzhanov D., Mirzaev M. Insectoacaricide Alfa Toro Against The Apple Worm Plant On The Apple. //The American Journal of Agriculture and Boimedical Engineering. (ISSN – 2689-1018) Published: December 30, 2021| Pages: 19-23. Doi: <https://doi.org/10.37547/tajabe/Volume03Issue12-01>.

8. Karakhodjaeva G., Obidzhanov D., Mirzaev M. The importance of nutrients in the leaves in the fertilization of apple orchards // The American Journal of Agriculture and Boimedical Engineering (ISSN – 2689-1018) Published: May 30, 2022 | Pages: 46-49. Doi: <https://doi.org/10.37547/tajabe/Volume04Issue05-12>.

9. Dilshod Obidzhanov & Mansur Muminov. Combat against roll moth in apple orchards. The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering, Published Date: September 30, 2022 |Crossref doi: <https://doi.org/10.37547/tajabe/Volume04Issue09-02>

10. Obidjanov Dilsho Axmed Xuja o'g'li q.x.f.d., Matniyozov Bekzod Ulug'bekovich Olma hosilini olma mevaxo'ridan himoya qilish. //Agrokimyohimoya va o'simliklar karantini. – Toshkent, 2023. – №5. – B. 14-15.

11. Учаров А.Б., Обиджанов Д., Применение микробиологического препарата биослип пв в защите лимона от сосущих вредителей. «Фитосанитарная безопасность: угрозы и пути решения» Международной научно-практической конференции, посвященной 65-летию основания института, 14-15 декабря 2023 г., г. Алматы, Республика Казахстан. info@niizkr.kz С. 485-488.